

# O'ZBEK TILINING BOYISH MANBALARI

## ( TASHQI MANBA ASOSIDA)

**JDPI talabasi**

**Mizomova Farida**

Ona tilimiz boshqa tillardan o'zining lug'at tarkibining boyligi bilan ajralib turadi. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy ham o'zining bir necha asarlari orqali buni yaqqol isbotlab bergan. Navoiy tilimizdagi so'z tovlanishlarini boshqa tillar bilan qiyosiy tarzda o'rgangandir.

O'zbek tilining leksikasi fan-texnika, san'at, ishlab chiqarishning taraqqiyoti bilan bog'liq holda boyib boradi.

O'zbek tili leksikasi bir qancha manba asosida boyib, rivojlanib boradi. Uni eng avvalo, ikkita katta guruhga ajratish mumkin:

- 1) ichki imkoniyat;
- 2) tashqi imkoniyat.

Til lug'at tarkibining ichki manba asosida boyishi deganda shevalahjachalardan so'z olish, yangi so'zlar yasash asosida boyishi tushuniladi. Masalan, buvi, buva so'zlari adabiy tilga Andijon shevasidan olingan, bildirishnoma, dalolatnoma, ma'ruzachi so'zlari yasama so'zlardir.

Chet tillaridan so'z o'zlashtirish asosida til lug'at tarkibining boyishi tashqi omil asosida boyishi deyiladi. Bunda o'zbek adabiy tiliga fors-tojik, arab, rus va boshqa tillardan so'z o'zlashtirishi tushuniladi.<sup>1</sup>

O'zbek tiliga boshqa tillardan so'z o'zlashtirish turli davrlarda turlicha bo'lgan. Eng qadimda fors-tojik tillaridan, keyinroq arab tilidan, undan ham keyinroq esa rus tilidan va rus tili orqali Yevropa tillaridan so'z o'zlashtirish faollashgan. O'zlashgan so'zlar ham o'zbek leksikasida anchagina miqdorni tashkil

etadi. Keyingi yillarda tilning leksik tarkibini soʻz yasashdan koʻra boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish hisobiga boyishi yetakchilik qilmoqda.

Boshqa tillardan soʻzlar ikki usul bilan oʻzlashtiriladi:

1)soʻzni aynan olish yoʻli bilan;

2) kalkalab olish yoʻli bilan.<sup>2</sup>

**1.Oʻzicha olish.** Bunda boshqa tildan oʻzlashtirilayotgan soʻz hech qanday oʻzgarishsiz yoki ayrim ( juz'iy ) fonetik oʻzgarishlar bilan olinadi. Mas. Gʻoʻza (f-t),gul (f-t),poya (f-t), kaptar (f-t, kabutar); balo(ar.); bil'aks(ar.), davlat (ar.), muallim (ar. Muaʼllim); direktor(r-b.), rektor(r-b.),

Institut (r-b.), metro (r-b.), cho't(< rus. Счет6/), cho'tka (< rus. Щетка) kabi.

**2. Kalkalab olish.** Bunda boshqa tildagi (mas., rus tilidagi) so'zning Morfemik tarkibidan qismma-qism nusxa olish orqali o'zbekcha so'z yasaladi Va shu so'z bilan boshqa til (mas.,ms tili) leksemasining maʼnosi ifodalanadi.

Qiyos qiling: yarimo»tkazgich < rus. Полупроводник, ilmiy-ommabop <

Rus. Научно-популярный kabi. Kalkalashning bu turi to'liq kalka banaladi,

Chunki unda boshqa til so'zining ifoda materiali o'zbek tili materiali bilan

To'liq almashtirilgandir. Baʼzan boshqa til so'zining bir qismi o'zgarishsiz

Olinadi, qolgan qismi esa o'zbek tili materiali bilan almashtiriladi. Qiyos

Qiling: mikroo'g'it < rus. Микроудобрение, ultratovush < rus. Ультразвук,

Rekordli < rus. Рекордный, meshchanlik < rus. Мещанство kabi. Kalkalashning bu turi yarim kalka hisoblanadi.

Toʻliq va yarim kalkalar so'z o'zlashtirishning grammatik usuli deb Ham qaraladi, chunki bunda boshqa til so'zlarining maʼnoli qismlaridan

Nusxa ko'chirilishi orqali so'z yasaladi. Ammo tilda ba'zan yangi so'z yasalmay, azaldan mavjud bo'lgan birorta leksemaga boshqa til leksemasining

Birorta ma'nosini yuklash orqali ham ma'no o'zlashtirilishi ta'minlanadi.

o'zlashtirishning bu turi semantik kalka sanaladi.<sup>3</sup>

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Nosirjon Uluqov – «Tilshunoslik nazariyasi»- Toshkent – « Barkamol fayz media» - 2016-yil, 116-bet.

2. Hasanxon Jamolxonov – «Hozirgi o'zbek adabiy tili» - Toshkent – «Talqin» - 2005-yil, 196-197- betlar.

3. <http://iht.uz>.